ALISHER NAVOIYNING “LISON-UT TAYR” ASARIDA ASAR MAZMUNINI YORITUVCHI MAJOZIY OBRAZLAR

Turdiyeva Feruza Esirgap qizi, Abdusayitova Aziza Sunnatovna

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali talabalari

Annotasiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut- tayr” asaridagi hayvonlar timsoli majoziy ma’no beruvchi xususiyatlari orqali bayon etilgan.Asardagi g’oyalar va uning ma’nolari inson xarakteriga o’xshatilib tahlil qilingan .

Kalit so’zlar: Vodiy, ishq, qushlar, hikoyat, ashobi qahf, timsol,majoz, siyrat, doston, valiy.

Alisher Navoiy ijodidagi dostonlar va asarlarni tahlil qilar ekanmiz, undagi ta’limiy va tarbiyaviy bilim bilan birgalikda, falsafiy, majoziy ma’nolar orqali teran mazmun ifodalanib kelishi alohida o’rin egallaydi.Ayniqsa ’’Lison ut-tayr’’ dostoni o’zining serqirraligi va qushlar qatorida ba’zi hayvonlar talqinining berilishi bilan ajralib turadi. ‘’Lison ut-tayr’’ (arab. — "Qushlar tili") — Alisher Navoiyning umrining so`nggi yillarida yozilgan dostoni hisoblanib, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridandir.Alisher Navoiy ushbu dostonni Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr “dostoni ta`sirida yozadi.” Lison ut-tayr” falsafiy-irfoniy doston bo‘lib, shoir unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ifodalagan. Shu yo‘sinda insonni ulug‘laydi, uning kamolotga erishish yo‘lini yuksak she’riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning barcha g‘oyasi odamning tarbiyasini ko‘rsatishga qaratilgan. ".Lison ut-tayr " 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo‘lib, aruz vaznining ramali musaddasi shu darajaga oshdiki, hattoki barcha itlar unga o’z podshohi kabi hurmat ehtirom ko’rsatar edilar. Uning borgan har bir joyida alohida izzat ikrom ko’rsatilar edi. Hattoki shunday bir mo’jiza bo’ldiki, uning go’yoki hayvonlikdan, ya’ni itlik siyratidan butunlay voz kechilishi, buyuk maqom egasi deya tillarga doston bo’lib ketdi. Kunlardan bir kun it vafot etdi. Uni Shayx eshigi yaqinida go'r qazib, o'sha yerga dafn qildilar va qabrini xuddi insonlarniki kabi belgilab qo'ydilar. Itlar uning motamida ko'p fig'on tortib, qabri atrofida makon tuttilar. Uning qabri shu kunlarda ham hokimi baxtiyor hisoblanadigan. Xorazm mamlakatida mavjud. Olamda bundan ham qiziqroq so'z eshitilganmi? Ya'ni saodat ahli itga ko'z tashlasayu bu nazar itga yaxshi natija yetkazib, uning zotiga kishilik asarini bersa! Bu inoyat unga faqat kishilikdan nishon beribgina qolmay, valilik nuri nash'asidan ham darak bergan bo’lsin! Shu qabildagi qissa qadimdan ham mavjud, bunga "Ashobi kahf"("G'ordagi birodarlar") voqeasi dalil bo'la oladi. Chunki Alloh inoyat etsa, bu inoyat it yoki qushga nasib etsa nimasi ajablanarli, axir!.[3] Itning o’limi barchani hattoki hayvonot olamini ham larzaga va qayg’uga sola boshladi. Itlar g’am anduhdan uvvos solib, uning qabrini doimo qo’riqlashni va u yerni o’zlari uchun makon tutishni xohladilar. Itning qabri esa Shayx eshiklari oldida bir go’r qazib, o’sha yerda uni xuddi inson kabi dafn etdilar. Hozirgi kunda ham uning qabri Xorazmda bo’lib, hurmat ila tilga olinadi. Eng qizig’i hayvonning shayxlik darajasiga sazovor bo’lishi , uni hayvoniylikdan voz kechib, unga nisbatan insoniylik maqomi berilishidir. Bu shunday bir haqiqatki, buni inson zoti ko’z ko’rmay, quloq eshitmagan bir mo’jizaning yaqqol misolidir. Darhaqiqat qanday zot yoki jonzot bo’lishiga qaramasdan, xoh hayvon bo’lsin, xoh qush bo’lsin bunday maqomni aynan hayvonlarga berilishi Yaratganning inoyati bilan bo’ladi deydi buyuk shoirimiz Alisher Navoiy hazratlari. Bundan ko’rinib turibdiki, inson zotidan tashqari it ham bunday ulug’ maqomga sazovordir. Navoiy hazratlarining keying hikoyatlari ko’rlar va fil haqida bo’lib, insonlarning xususiyatlari shu yo’l bilan tasvirlanib borilgan. Naql qilishlaricha, bir guruh ko'rlar to'dasi bir sabab bilan: musofirlik yoki asirlik tufayli

Hindistonga borib qolishibdi. So'ngra falakning gardishi bilan ular yana o'z yurtiga qaytib kelishibdi. Bu yerda ulardan bir kishi: "Filni ko'rdilaringizmi?" — deb so'rabdi. Ular "Ha",- deb javob beribdilar. "Ko'rgan bo'lsangiz, dalil keltiring",— debdi boyagi kishi. Ular aslida filni ko'rmagan, u haqda hatto yaxshi so'rab ham olmagan edilar. Har biri filning bir a'zosini paypaslab, undan bilim hosil qilib olgan edi.[4] Navoiy ushbu hikoyatlarinini tahlil qilar ekanmiz , undagi majoziy ma’nodagi bir haqiqatni ilg’ab olish uni chuqurroq va teranroq anglashimiz lozim. Bu ham albatta Navoiyning tug’ma iste’dodi va mulohazali dunyoqarashiga bog’liq jarayondir. Ko’rlar guruhi Hindistonga sayohat qilib kelgandan so’ng ulardan filni ko’rdingizlarmi deb so’rashadi. Ular ko’rmagan bo’lsalarda uni qo’llari va his tuyg’ulari bilan ifoda etib, o’zlari bilganlaricha uni tasvirlashga kirishadilar. Ulardan isbot so’ralganda qanday idrok etsalar, shundaylikcha uni so’zlshni maqbul ko’radilar. Shu sababli filning qo'llarini ushlagan kishi fil ustunga o'xshar ekan, desa, qornini paypaslagan, yo'q, u besutun, dedi. Xartumini ushlagan, fil ajdahoga o'xshash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug'idan xabar bergan kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etdi. Qo'li bilan Filning boshini paypaslagan kishi uni bir qoyaning tumshug'i deb sharh qildi. Filning qulog'iga qo'l tegizgan kishi uni qimirlatib turgan ikki yelpug'ich ekan, dedi. Ularning barchasi shu tariqa ko'rlik yuzasidan turli so'zlar aytdilar. Garchi ular aytgan so'zlarning barchasi to'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi, ularda tartib mavjud emas edi. Shuning uchun ham filbonlik sohasida ustod hisoblangan yetuk faylasuf, o'zi hind naslidan bo'lgan kishi ular aytgan so'zlarni tinglab, naql qilganlarga ta'na so'z aytmadi va shunday dedi: - Har bir kishi fil haqida o'zi bilganini aytib, u haqda nishon berdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytgan bo'lsalar-da, kechirarlidir. Chunki ularning har biri o'z bilganicha so'z aytdi, ammo ulardan hech biri filni ko'rgan emas edi. Lekin ular aytgan bu sifatlarning barchasi bir yerga jam qilinsa, ulardan fil haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi. Uzoqni ko'ruvchi kishiga bu aniq bo'lgani uchun u hech bir ikkilanmasdan ko'rlar aytgan barcha so'zlarni chin deb baholadi. [5] Navoiy har bir ko’rlarning tasvirini ifoda etar ekanlar, filning oldingi oyoqlarini ushlab ko‘rgan odam: “Ustun” deydi. Qornini paypaslagani: “Ustunsiz” deydi. Xartumini ushlagani: “Ajdaho” desa, tishlarini tutib ko‘rgani: “Ikki suyak” deydi. Quyrug‘idan tutgani: “Bir ilon osilib turibdi” desa, filning boshiga qo‘l urgani: “Bir qoyaning tumshug‘i” deydi. Qulog‘ini ushlab ko‘rgan basir esa: “Qimirlab turgan ikki yelpug‘ich!” deydi. Bu so‘zlarni tinglab turgan hindistonlik filbon elga qarab: “Bular filni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rmaganlar, lekin hammalari to‘g‘ri aytayaptilar. Ana shu aytilganlarning hammasi yig‘ilsa, fil haqida to‘g‘ri tasavvur hosil bo‘ladi” deydi. Demak shuni ta’kidlab o’rtish joizki, garchand ular filni ko’rmagan bo’lsalda, fil haqida aytgan har ma’lumotlari haqiqat deya tan olinadi. Chunki ular tomonidan ta’riflangan har bir fil a’zolarining talqini filbon nazdida yolg’on emas, balki chin haqiqatning o’zidir. Shuning uchun filbon qanchalik fil haqidagi bilimlarni bilimdoni bo’lmasin, komil inson kabi ularni tinglab xulosa chiqaradi. Garchand bu insonlar ko’zlari ojiz bo’lsada, ularni qalbi uyg’oq kishilar deb maqtaydi va bunday insonlar ba’zi chala bilimdon odamlardan ko’ra ustunroq qo’yadi. Ko’p o’qigan bilan uni uqish ham muhim ekanligini ta’kidlab o’tadi. Xo’sh nega Navoiy hazratlari aynan filni misol sifatida oldilar. Chunki filning ulkan gavdasi, uning xususiyatlari boshqa hayvonlardan tubdan farq qiladi. Fil timsolida esa inson ilmni qanday idrok eta olishi, o’qigan bilimlarini qanday tushunishi nazarda tutilgan. Keyingi vodiy Istig'no vodiysi bo'lib: u yerda a'lo va past tabaqali kishilarning hammasi teng sanaladi. U yerdagi chumolilar sher bilan ovqatlanadi, pashshasi esa filni ov qilishga qodir. U yerda yetti iqlimni zabt etgan qahramon shoh ham oddiy bir gadoga tengdir. [6] Keyingi hikoyatdan olingan parchada, barcha insonlarning tengligi to’g’risida bo’lib, ular xoh boy, xoh kambag’al nochor bo’lsin teng huquqli ekanliklari e’tirof etiladi. Chumolilarning jussasi qanchalik kichkina bo’lmasin, eng vajohatli sher bilan birgalikda taom iste’mol qilishi, pashshadek bir hasharot esa shunday bir kuch qudratga egaki, hattoki fildek ulkan va salobatli hayvonni yengishga qodir bo’lib, uni ov

qilishni maqsad qilgan. Qissadan hissa shuki o'zi kambag'al bo'la turib, yoki mansab egasi bo'lmasada, o'zining kuch qudratiga ega insonlar qiyofasidagi pashsha va chumolilar majoziy ma'noda qo'llanilgan. Dostonning 5-bobi to'rt xalifaning birinchisi Hazrat Abu Bakr Siddiq madhiga bag'ishlangan. Alisher Navoiy bu zotni "sodiqu siddiq" deb atab, tashbeh san'ati vositasida payg'ambarimizni g'or ichidagi xazinaga, Abu Bakr (r.a)ni esa shu xazinani qo'riqlab yotgan ajdahoga o'xshatadi: Sodiqu siddiqu hamrozi oning, Har yomon-yaxshida damsozi oning… Ganjkim g'or ichra pinhonlik qilib, Ajdahodek ul nigahbonlik qilib. [7]

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Navoiy asaridagi hayvonlar talqinning ifodalanish usullari garchi hikoyatlar orqali berilgan bo'lsada, har birining o'ziga xos ma'no va maznuni mavjud. Garchi it ma'nosida itlikdan umrbod voz kechib, barcha odamiylik xislatlariga ega bo'lgan bir hayvon misolida talqin qilinsa, fil insonning ilmni qanday idrok etib, uni talqin qilishi bo'lsa, pashsha va chumolilar timsollari past tabaqa, zaif hasharot bo'lishiga qaramasdan, o'z qudratini ya'ni o'zligini anglab olgan bilimli insonlar talqinida va sher hamda fildek kuchli va qo'rqmas hayvonlar esa garchand tashqi ko'rinishdan ular haybatli va botir ko'rinishidan qat'iy nazar zaif hayvonlar bilan teng huquqli ekanliklarini, xalifani ajdaho timsolida ifodalanishi zo'r mahorat bilan tasvirlab berilgan. Insonlarning mansab-u boyliklardan qat'iy nazar tengligi, ularni ulug'lash, insoniylik tuyg'usining yuqori qadrlanishi, hayvonlar obrazi misolida ifodalanishi Alisher Navoiy ijodining eng betakror va serqirra jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Matyoqubova Tozagul Rajabovna Alisher Navoiy hayoti va ijodi fani bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent 2009

2. A.Navoiy ''Lison-ut tayr'' (nasriy bayoni) www. ziyo.uz kutubxonasi 49 -79-80 betlar

3. Alisher Navoiy."Lison ut-tayr" .Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Nashriyotmatbaa birlashmasi,1991.78-bet.

4. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/xurshid-davron-navoiynoma-xvxvi-lison-ut-tayr-haj-armoni-yana-gavgo-mahbubul-qulub-navoiy-armoni.htm